

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7.2021

**научно-теоритический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2021

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY’ATI:
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdior, fizika-matematika fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari), YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
2021 7(169)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyala agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

этирофи, мазлумлар дардига малҳам бўлиш ҳам, энг аввало, чиройли одобга сабаб бўлган илм шарофатиданлигини шоир бетакрор ифода этган. Шунингдек, юқоридаги рубойда тазод санъати ҳам қўлланилган бўлиб, илми ва нодон кишилар қаршилантирилган. Доно одамнинг барча каломи ибратга, бошқаларга хузур етказишга қартилган бўлса, нодон, илмсиз киши эса ақли йўқ кабидир, деган хулоса чиқарилади. Асарда бу каби мисоллар жуда кўп.

Алишер Навоийнинг ўлмас фикрлари, орзу-мақсадлари асрлар давомида инсон ва жамият комиллиги учун хизмат қилиши, шубҳасиз. Алишер Навоийнинг яқин дўсти бўлган Ҳусайн Бойқаро ҳам улуғ шоирни этироф этиб, жумладан, шундай деган эди: *“Мир Алишер турк тилининг ўлган жасадига Масиҳ нафаси ила руҳ-жон киргизди..У ҳар бир шеър тури майдонида топқир отини сурар экан, ўша мамлакатни тил қиличи бирла ўзига тобе этди. Унинг назмини мақташига тил нуқсонли, қалам ожиздир ва бу кун назм дунёсининг рубъи маскуниди қаҳрамондурур ва ул зотни бу мамлакатни қўлга киритган соҳибқирон деса бўлур”*.

Олис юлдузларнинг нурлари улар сўнганидан кейин ҳам минг-минг йиллар мобайнида она еримизга ёғилиб туради. Алишер Навоий ҳам буюк даҳолар сафидан мустаҳкам ўрин олиб, ўзбек номини жаҳонга машҳур қилиб, она халқимиз тимсолига айланди. Бобомизнинг уммон каби бепоён ижодидан ҳар ким ўз истеъдодига яраша баҳраманд бўлади. Давлатимиз раҳбари таъбири билан айтганда, учинчи Ренессансга қадам қўяётган бугунги кунда Алишер Навоийга бўлган эҳтиром миллат тараққиётига бўлган муносабатнинг асосий пойдевори сифатида асрлар оша миллат маънавиятининг қуёши бўлиб порласин.

Jumayev Ruzokul Xoliqulovich (Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi)
SADRIDDIN AYNINING “ESDALIKLAR” ASARIDA OYKONIM TURLARINING
QO‘LLANISHI

Annotatsiya. Muallif S.Ayniyning “Esdaliklar” oykonimlarini qurilish jihatidan oddiy, sun’iy, murakkab va frazotoponimlarga bo‘lib o‘rganishni ta’kidlaydi.

Аннотация. Автор обращает внимание на изучение простых, искусственных, сложных фразотопонимов в произведении С.Айни «Воспоминания» с точки зрения построения ойконимов.

Annotation. The author emphasizes the study of S.Ayni’s “Memories” in terms of simple, artificial, complex and phraseotonyms in terms of construction.

Kalit so‘zlar: toponim, oykonim, ergonim, xoronim, agronomiya, polionim, komonim, urbanonim, kompleks, tuzilish, so‘z birikma-toponim, til, tarkib, toponimlar, foydali, go‘zal yerlar, qadimiy, sinonim.

Ключевые слова: топонимы, ойконимы, эргонимы, хоронимы, агрономия, полионим, комоним, урбаноним, комплекс, строение, словосочетание-топоним, язык, состав, топонимы, полезно, красивые земли, древний, синоним.

Key words: toponym, oikonym, ergonym, khoronim, agronomy, polyionym, comonym, urbanonym, soda, sokhta, complex, toponym phrase, language, structure, toponyms, useful, beautiful land, ancient, synonym.

Badiiy asarni muayyan makonga nisbat bermay tasavvur etish qiyin. Hatto, lirik janrning ham makoni bor. Bu makon aniq biror yer bilan bog‘lanmasa-da, qalbdan chiqqan so‘zning manzili juda bo‘lmaganda insonning ko‘nglidir.

Badiiy proza esa o‘ziga xos bo‘lib, unda voqea hodisa muayyan manzil-makon bilan, albatta, bog‘lanadi. Hatto voqeabandlik (sujet) asotiriy makonda ro‘y berishi ham mumkin. Biroq, eng muhimi, badiiy asarning mazmuni bog‘langan makon albatta biror nom bilan ataladi. Bu makon nomi “Chambil bel”mi, “Alamazon”mi, “Avesto”dagi “Xvanirata”mi, Maxmurning “Hapalak” qishlog‘imi, “Buxoroning jin ko‘chalari”mi, Marg‘ilon yoki Toshkentmi – xullas, joy nomlari har qanday badiiy asarning jon tomiri, uning mazmuni, tutib turuvchi ustuni, sinchidir.

Badiiy asarda joy nomlaridan, ularning asar talabidan kelib chiquvchi tarixiy yoki mahalliy shakllaridan ustalik bilan foydalanish yozuvchining nafaqat badiiy mahoratidan, balki o‘zi yoritayotgan hayotiy vaziyatning butun borlig‘i, ichki mazmunidan, unda ishtirok etuvchi unsurlarning tabiatidan chuqur xabardorligidan dalolat beradi. Ustoz S.Ayniyning “Esdaliklari” ham O‘rta Osiyo xalqlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi turli voqealarni o‘z ichiga olgan biografik asarlardan biri bo‘lib, bu voqealarni aks ettirishda O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy joylari eslatib o‘tilgan. Shunga ko‘ra, biz asarning geografik xususiyatlarini lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishga va ularning xususiyatlarini aniqlashga

qaror qildik. Oykonomlar yordamida aholining qadimiy xo'jalik yuritish shakllari, ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari, qazib olingan foydali qazilma joylari, o'tmishdagi karvon yo'llari, rivojlangan hunarmandchilik turlari, xalqlarning tarqalish areali kabi masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Oykonomlar joy nomlari doirasida alohida guruhni tashkil etadi. Oykonom grekcha "oykos" – uy ma'nosini anglatadi. Aholi punktlari va uning ichki bo'linishlari – qishloq, qo'rg'on, ovul, mahalla, guzar, ko'chalar nomi oykonim deb yuritiladi. Oykonomlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, joy tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar oykonimlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o'tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug', qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti – qanday kasb-hunar bilan shug'ullanganligi, shuningdek, obyektning biron kishiga qarashlilikini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir.

Tadqiqotchilar oykonimlarni turar joylariga qarab quyidagi guruhlarga ajratishgan:

Komonim – har qanday qishloqning atoqli oti; *Polionim* – har qanday shaharning atoqli oti; *Urbanim* – shahar ichidagi maydon, ko'cha, bozorning nomi. *Ergotoponim* – muassasa korxona va fabrikalar nomlari to'plami; *Xrematonim* – madaniy va ma'rifiy hayot bilan bog'liq ismlar to'plami; *Xoronim* – kasbga oid ko'chalar va joylarning nomlari to'plami.

S.Ayniyning «Esdaliklar» asaridagi oykonimlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: a) *polionim*; b) *komonimlar*; d) *urbanimlar*; e) *agronimlar*; f) *xrematonimlar*; g) *ergotonim*.

a) Polionimlar oykonimlarning ajralmas qismi bo'lib, *poly-shahar* + *onimiya* – nomdan tarkib topgan va shahar nomlarini bildiradi. Ko'rib chiqilgan asarda muallif tarixiy voqealarni aks ettirish uchun quyidagi shahar nomlaridan foydalangan: Buxoro (2.16, 17, 31, 32, 52, 70, 86, 93, 105, 106, 108, 109, 117, 118, 121, 124, 126, 130, 133, 146, 147, 149, 150, 152, 153, 156, 157, 158; 2-qism: 159, 160, 161, 162, 163, 164, 165, 167, 170, 171, 173, 174, 177, 179, 180, 182, 195, 196, 198, 199, 201, 207, 209, 218, 220, 234, 247, 252, 260, 261, 271, 307, 309), *Samarqand* (128, 161, 162, 163, 194, 195, 196, 197), *G'ijduvon* (9, 30, 70, 74, 89, 93, 103, 112, 115, 151), *Shofirkon* (9, 17, 25, 30, 67, 68, 69, 71, 80). Buxoro, Samarqand, G'ijduvon, Shofirkon polionimlari hanuzgacha shu shaklda ifodalanadi va qadimiy shaharlarning nomi sifatida qaraladi. Asar tarkibida ushbu polionimlarni o'z ichiga olgan ayrim misollarni keltiramiz: Yog'och yo'nishda va yog'ochga qabartama va o'yma naqshlar solishda *Buxoro shahrida* ham u kabi ustalar kam topiladi derdilar [35]. Bu orada mulla Turob yana bir marta *Samarqandga* borib keldi [194]. Bizning xatib bir kuni *G'ijduvon* bozorida shunday chilimlardan uchtasini sin-dirib tashlabdi [112]. Uning gapiga ko'ra, *Shofirkon* tumanining xalqi o'tgan yil o'z tashabbusi, o'z ku-chi bilan qum bosgan eski rudni ochmoqchi bo'lip [67];

b) Komonimlar oykonimning ajralmas bir qismi bo'lib, qishloq nomlari ma'nosini bildiradi (*komos* – qishloq+onimiya – nom.). Muhokama qilinayotgan asarda muallif tarixiy voqealarni tasvirlash uchun quyidagi qishloqlar nomlaridan foydalangan: *Dehnavi Abdullojon* (Dehnav) (29, 223), *Boloi Ro'd* (27), *Ro'baho* (72,75), *Qaraxoni* (25,75), *Tezguzar* (29,221, 223), *Bog'i Afzal*, *Qarayog'och*, *Muhammad Boqi*, *Qochixo'ron* (29), *Yalangi* (118), *Dahbed* (128), *Tagi Qo'rg'on* (150), *Mahalla* (152, 218), *Galaosiyo* (226), *Karki* (232), *Xariz* (223, 230), *Rozmoz* (229), *Gulobiyon* (48), *Bozorcha* (248, 252). Keltirilgan komonimlardan *Dehnavi Abdullojon*, *Bog'i Afzal*, *Muhammad Boqi* antrokonimlar guruhiga taalluqli bo'lib, komonimlarning tuzilishida kishilarning nomi qatnashgan. *Tezguzar*, *Darveshobod*, *Obekanda*, *Sayidkent*, *Dahbed*, *Jo'gixona*, *Galaosiyo*, *Galajo'y* murakkab komonimdan tarkib topib, ikki juz'dan iborat. *Tabariyon*, *Ro'boh*, *Qaraxoni*, *Karki*, *Yalangi*, *Bozorcha* soxta komonimlar qatoriga kiradi. Sodda komonimlar tarkibida *Burkut*, *Mahalla* arabcha *G'arbut* turkcha.

*Dehnavi Abdullojon*ning shimol tomoni, *Muhammad Boqi* qishlog'ining bir qismi va *Kochixo'ron* qishlog'i butunlay qum ostida qolgan (29). Bugun *Istamze* bilan *Mahallai Boloni* sug'oramiz. Ertaga ro'dning suvi *Dehnavgacha* boradi... Hashar *Mahallai Bolo* qishlog'ining janubidagi "*Ro'bohho*" (Tulki-lar) qishlog'iga kelgan ekan (72,76). Biz *Mahallai Bolo* qishlog'ining shimolida bo'lgan *Boloi Ro'd* qishlog'iga yetdik (27). Biz Qoqyovonining oxirida *Qoraxoni* qishlog'iga yondosh bo'lgan bobomning bog'iga borib etdik (25). U bir necha kundan beri *Tezguzar* qishlog'ida birovning binokorlik ishida ishlar edi (29). *Bog'i Afzal* va *Tezguzar* qishloqlarining bog' va ekinzorlari, *Qarayog'och* qishlog'i ekinzorlari, *Dehnavi Abdullojon*ning shimol tomoni, *Muhammad Boqi* qishlog'ining bir qismi va *Kochixo'ron* qishlog'i butunlay qum ostida qolgan (29). Xo'jalar *Dahbed* qishlog'iga borib, to'yxonaga tushganlar (128)... *Mahalla* degan qishloqqa Buxorodan mehmon kelgan ekan (152)...shahardan sakkiz kilometr uzoqlikda bo'lgan *Galaosiyo* degan manzilga yetdik (226). Biz *Childuxtaron*dan o'tib *Xariz* degan joyga yetdik (223). Biroq o'g'rilar bu ishdan xabardor bo'lgan ekanlar, soliq karvoni *Rozmoz* qishlog'iga yetganda yo'lni to'sib, amlakdor odamlarini mag'lub etib, naqd pulni va tortiq qilish uchun olib borilayotgan nar-

salardan bir qismini olib ketganlar (229). Bizning qishlog'imiz – Bozorchada Nasim degan eshakchi bor edi (252);

d) Urbonimlar polionimlarning ajralmas qismi bo'lib, shahar ichidagi xiyobon va mahallalarning nomini anglatadi (urb. – “shahar” va onim – nom). Asarda muallif tarixiy voqealarni aks ettirish va qiziqarli obraz yaratish uchun quyidagi urbonumlardan foydalangan: *Bozorxo'ja* (124), *Kemuxtgaron* (124), *Ja'farxo'ja* (205, 210), *Degrizon*, *Ximchagaron*, *Kalobod* (210), *Ko'chai Sangin*, *Xoja Zayniddinm Ham-momikunjak*, *Siddiqxon*, *Tagi Manor* (262). Akalarim uch kun joy izlab yurib, *Bozorxo'ja* nomli guzardan bir joy topdilar (124). Biz *Kemuxtgaron* nomli mahallaga kelganimizda akam muzlagan qorda toyilib yiqildi, xum sindi, ko'mir sochilib yer bilan bitta bo'ldi (124). Ahmad Maxdum, asosan, o'zining *Ja'farxo'ja* mahallasidagi hovlisida turar...(205). *Degrizon*, *Ximchagaron*, *Kalobod* va boshqa mahallalardan o'tib, *Ja'farxo'ja* mahallasiga yetdik (210). U tor ko'cha bilan *Ko'chai Sangin*, *Xoja Zayniddinm Ham-momikunjak* va *Siddiqxon mahallalari orqali*, *Tagi Manor* va G'o'za bozoriga chiqib, u yerdan Mir Arab madrasasiga kirdik (262);

e) Agronomlar oykonimlarning ajralmas qismi bo'lib, shahar va qishloqlardagi dala, maydon va ekinzorlarning nomini anglatadi (agros – dala, ekinzor, bog' va onim – nom). Asarda muallif tarixiy voqealarni aks ettirish va qiziqarli obraz yaratish uchun quyidagi agronimlardan foydalangan: *Sari Puli Eshon* (Eshonko'prik, 116), *Registon* (2.234, 235, 236, 237, 238, 239, 240, 243, 244, 245, 246, 247, 254, 256, 261, 262, 263, 264), *Naddoflik rastasi* (261). Bizning qishloqdan ikki kilometr narida, Zarafshon daryosining ko'prigi boshida *Sari puli Eshon* (Eshonko'prik) degan bozorcha bor edi (116). ...*Registon* maydoniga bostirib kira boshladilar... (244). Biz *Naddoflik* rastasidan o'tib, to'qimado'zlik hammomiga yaqinlashganimizda, hammomning oldida ikki tomonidan kelayotgan odamlarning to'planganlarini va o'zaro shovqin-so'ron va janjal qilayotganlarini ko'rdik (261);

f) Ergotonimlar oykonimlarning bir bo'limi bo'lib, muassasa, kompaniya, korxona, klublarni yaratishda yoki shakllantirishda rol o'ynaydigan bir guruh odamlar nomlari to'plamidir. Ushbu toponimik atama yunon tiliga mansub va *ergo* – “mehnat”, “faoliyat” va onimiya – ismdan iborat bo'lib, muassasa, korxona, zavod va fabrika nomlari to'plamini ifodalaydi: *Miri Arab* [118, 121, 123, 124, 177, 179, 180, 182, 184, 185, 186, 188, 190, 195, 196, 198, 199, 200, 202, 205, 210, 213, 216, 234, 248, 261, 262, 266, 268]: Men *Miri Arab* madrasasida kunda uch dars o'qirdim (179). *Badalbek* madrasasida turadigan mulla Bozorning oldida o'qishga kirishdim (180). Men bu fursatdan foydalanibm chavkiyni tomosha qila boshladim: chavkiy madrasa sahni bilan *Masjidi Kalon* – katta masjid orasidagi bir chuqur maydonchada bo'layotgan edi (119). *Boloyi Hovuz* (236, 247): *Boloyi Hovuz* binosining devori ostida ham arqon sotiladigan do'koncha bor edi (247). *Ja'farxo'ja madrasasi*: Buxoro madrasalarining eng serdaromadi *Ja'farxo'ja madrasasi* edi (163). *Zargaron* toqi toqi ostidan, *Zargarlik* rastasidan, *Ulug'bek Mirzo* madrasasi oldidan o'tib, *Ja'farxo'ja* mahallasiga etdik (210). *Ko'kaldosh* (234, 265).Zohid qori *Ko'kaltosh madrasasida* ko'p hujraning egasi bo'lib, uning ustiga sudxo'rlik ham qilar ekan (264). *Xiyobon* (madrasa): ...uning *Xiyobon* madrasasida, mulla Turob degan hamqishlog'i bilan turgani ma'lum bo'ldi (268). *Dorushshifo* (madrasa) (235, 236), 238, 240): ...*Dorush-shifo madrasasi*, *Registon* maydoni va *Poyanda* jome'ning g'arb tomonlaridan o'tib ketardi (236). *Xonayi Ka'ba*: Hoji Zokir gapirardi. Makkada *Xonayi Ka'baga* qanday kirganini so'zlardi va arab shayxlaridan naql qilib, “*Xonayi Ka'baga* kirgan odam hamma gunohlaridan pok bo'lib, onadan yangi tug'ilganday bo'lib chiqar ekan”, derdi (249);

g) Xoronimlar ekonomlarning ajralmas qismi bo'lib, u O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari kabi hududlar, viloyatlar, tumanlar, hududiy-ma'muriy va iqtisodiy-ma'muriy yoki tabiiy-geografik birliklarning nomlarini o'z ichiga oladi.

So'z yunoncha bo'lib, xoros – “mamlakat” va onim – ism komponentlaridan iborat. “Esdaliklar” asarda Sadridin Ayniy tarixiy voqealarni aks ettirish va qiziqarli obraz yaratish uchun quyidagi xoronimlardan foydalangan: Rossiya (17(2), 137, 149, 163, 167, 198, 201), Hindiston (110, 183, 184), O'rta Osiyo (160, 167), Qozon (198 (6), 201). “Esdaliklar” dan misollar: ..., chunki Rossiya bilan savdo-sotiq rivoj topgan va Buxoro tomonlaridan Rossiyaga olib boriladigan asosiy mol paxta edi (17). Buxoro madrasalarining binolari O'rta Osiyoning boshqa joylaridagi madrasalarga o'xshagan, asosan, pishiq g'ishtdan ikki qavatli yoki bir qavatli qilib (160) bu kavushni urus ustalari emas, Qozondagi musulmon ustalar tikkanlar (198). Hindiston bosmasi ekani va nomi “Mahmud va Ayozi”ligi ma'lum bo'ldi (183).

Shuni ta'kidlash kerakki, odamlar nomi ishtirok etgan deb ataladigan, ko'pincha, u yoki bu shaxsga tegishli joy, yer, do'kon, yo'lak va boshqalarni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, Sadridin Ayniyning “Esdaliklar” avtobiografik asarida Buxoro amirligidagi oykonimlaridan turli maqsadda o'rinli foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айни Садриддин. Куллиёт. Ҷ.6, Душанбе, “Ирфон”, 1966, с. 7–191.
2. Айний Садриддин. Эсдаликлар. 1–2-қисм. “Тошкент”, 1965, 12-бет.
3. Begimov E. Nomlar va odamlar. Toshkent, “Fan”, 1966, 52-bet.

Абдуллаева Набия Идрисовна (Тошкент Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислар институти Бухоро филиали Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси) “АТЛАС” ШЕЪРИЙ ДРАМАСИДА ТАЛАБАЛАР ОБРАЗИНИНГ БЕРИЛИШИ

Аннотация. Мақолада ўзбек адабиёти шеърий драмасида илк бора талаба ва талабалик даври спецификаси муҳокама қилинган. Унда У.Носирнинг “Атлас” шеърий драмаси орқали гавдалантирган талаба ва домла образлари муносабати, нутқи, спецификаси ва портрети мисоллар орқали очиқ берилган.

Аннотация. В статье впервые в поэтической драматургии узбекской литературы рассматривается специфика студента и студенческого периода. В нем раскрываются взаимоотношения, речь, специфика и портрет персонажей ученика и учителя, воплощенных У.Насиром в поэтической драме «Атлас».

Annotation. The article discusses the specifics of students and the student period for the first time in the poetic drama of Uzbek literature. It reveals the relationship, speech, specifics and portrait of student and teacher characters embodied by U. Nasir through the poetic drama “Atlas”.

Калим сўзлар: талаба ва талабалик даври, домла, портрет, специфика, менгзамоқ.

Ключевые слова: студент и студенческий период, преподаватель, портрет, специфика, аналогично.

Keywords: student and student period, teacher, portrait, specification, similar.

Жаҳон адабиётида талаба образи ҳамда талабалик ҳаёти ўтмишда ҳам, ҳозир ҳам яратилган асарларда кўп учраши ва муайян бадиий вазифаларда тасвиру талқин этилиши унга хос поэтик хусусиятларни киёсий-типологик жиҳатдан ўрганишни тақозо этади. Ўзбек адабиёти намуналарида ҳам учрайдики, адабиётда унинг ўрнини, генезисини, миллий табиатини, поэтик-типологик хусусиятларини, специфик белгиларини киёсий аспектда ёритиш турли тизимли бу тил вакилларининг бадиий ижодига хос муштарак жиҳатларни билиб олиш учун зарурдир. XX аср ўзбек шеърлати осмонидан порлоқ бир юлдуз каби бирдан пайдо бўлган шоир Усмон Носирнинг ҳар бир асарида уйғониш, яшариш, маърифат, муҳаббат талқинини учратиш мумкин. У, гарчи қисқа умр кечирган эсада, шеърлари билан ўзига мангу ҳайкал ўрнатиб кетди.

Усмон Носир кўплаб шеърий асарлар ҳамда бир неча пьесалар муаллифи бўлиб, унинг “Атлас” шеърий драмаси ўзида ўша давр талабаларининг реал ҳаётига дахлдор воқеликларни ҳам қамраб олганлиги жиҳатидан эътиборни тортади.

Албатта, талаба образи бор жойда бевосита уларга таълим-тарбия берадиган устозлар ва домлалар образи ҳам ёритилади. Уларнинг муносабати бевосита расмий, дўстона, ота-она сингари, самимий. Бу фазилатлар билан бирга, талаба ва домло ўртасидаги муҳаббат мавзуси ҳам асарларда ўритилади. Бу мавзу XX асрда биринчи бўлиб, ўзбек адабиётида Усмон Носирнинг “Атлас” шеърий драмасида пайдо бўлди.

Ўз талабалик йилларида, 1933 йилда ёзилган ушбу шеърий драмада, аввало, ёшлик энг чиройли, бахтли, бетакдор давр сифатида таърифланиб, унга хос самимий муҳаббат туйғулари чиройли ёритилган:

Нақадар шириндир – тотлидир ҳаёт,

Ёшлик, у баҳорги япроқдир, сабий.

Бахтлилар... ишлари тоқату сабот

*Бахтлилар тоғларнинг бурғути каби!*¹

Ўтган асрнинг ёшлари ҳаёти ҳақидаги “Атлас” драмасида пок севги, муҳаббат талаба ва талаба, профессор-ўқитувчи ва талаба муносабатлари асосида тасвирланган. Ўн бир кўринишдан иборат бўлган асарда олий мактабнинг Орзуманд ва Атлас исмли талабаларининг бир-бирига бўлган севгиси, ёшлик кечинмалари, Атласнинг домласи алдовларига учиб йўл қўйган жиддий хато-

¹ Усмон Носир. Атлас. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, 194-бет.

Асатуллоев Иномжон Абобакир ўғли. Таълим тизими бошқарувида ҳисобдорликни ошириш орқали коррупцияга қарши курашиш ва шаффофликни таъминлашнинг таъсирчан механизмлари.....	105
Olimova Nilufar Qosimjon qizi. Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish texnologiyasi.....	108
Artiqova Muhayyo Botiraliyevna, Mirkamilova Mahliyo Poziljon qizi. Mustahkam poydevor – porloq kelajak asosi.....	110
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning talaffuzi va nutqini rivojlantirishga kreativ yondashuv ona tili ta'limida o'quvchilarning individual so'z boyligini oshirish.....	112
Бованова Умида Абдувахобовна. Бошланғич синф ўқувчиларида атроф-мухитга ижобий муносабатни шакллантиришнинг мазмун-моҳияти.....	115
Raxmedova Manzura Azadovna. Mahmud Zamaxshariy asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid masalalar.....	121
Qosimova Mavluda Navro'zovna. Chet tili fanlar samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	123
Турсунов Шахзод Рамозонович. Ватанпарварлик руҳи тушунчасининг мазмун-моҳияти.....	127
Саидова Сурайё Ярқуловна, Мусаллам Сафарова. Роль стратегии чтения по улучшению понимания, прочитанного у читателей на уроках английского языка.....	131
Tukhtaeva Kuysin. Developing Communicative Competence of Linguistic Students Using Internet Technologies.....	135
Tashpulatova Nargiza, Juraeva Zamira. The Role of Educational Game Technologies in Teaching Foreign Languages.....	142

ILMIY AXBOROT

Panayev Salay Satimovich, Otaboyev Ixtiyor Baxtiyor o'g'li, Panayev Sotimboy Salay o'g'li. Yuqori aniqlikdagi geometrik nivelirlashni zamonaviy uslubi.....	147
Ўролова Дилшодабону Олимжон қизи. Ёшлар аудиторияси учун мўлжалланган ҳуқуқий материалларнинг ёритилиши: ҳолати, муаммолари, истикболлари.....	151
Каримова Нилуфар Умнатқул қизи. Корпоратив бошқарув йўналиши талабаларининг софт скилсини такомиллаштириш хусусиятлари.....	154
Исмаилов Икрамжон Анваржонович. Ўзбекистонда ёшларни олий таълимга жалб қилиш борасидаги ислохотлар.....	159
Самандарова Нилуфар Кодировна. Француз ва ўзбек тилларидаги директив феълларнинг лисоний хусусиятлари.....	162
Абдиримова Интизор Комиловна. Алишер Навоий ижодида баркамол инсон ва мукаммал жамият тасвири.....	164
Jumayev Ruzokul Xoliqulovich. Sadriiddin Ayniyning “Esdaliklar” asarida oykonim turlarining qo'llanishi.....	167
Абдуллаева Набия Идрисовна. “Атлас” шеърӣ драмасида талабалар образининг берилиши.....	170
Холикова Нодира Джохонгировна. Жадид шеърӣятида янги эстетик принципларнинг шаклланиши.....	172
Kadirova Zaynura Zaynidinovna. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi perifrazalar.....	176
Хасанова Мусаллам Муминовна. Генрих Бёлль асарларида сирли аёл образи.....	178
Avezova Dildora Davlatovna. Arxaizmlar – tarjima muammosi sifatida.....	181
Мардонова Феруза Бахроновна. Подача информативного материала по русскому языку в условиях многонациональности.....	184
Бекжанова Айнура Мархабаевна. Иностранные языки в школах каракалпакстана 1930-х годов.....	186
Karimova Diyora Abduvaxidovna. The Use of Military Phraseology in the Language of Modern Mass Media.....	190
Safarbayeva Nigora Mustafayevna. Mathematics and the History of its Development.....	190
Doniyorova Gulrukh Shoniyozovna. Linguacultural Aspect in Teaching Foreign Language Communication in a Non-philological Institute.....	195

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**

Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**

Musahhihlar: **Jo‘rabek Rahimov,**

Aybek Kalandarov

Ushbu songa mas’ul **Sardor Xodjaniyozov**

Terishga berildi: 19.07.2021

Bosishga ruxsat etildi: 31.07.2021.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.

Rizograf bosma usuli. Tayms garniturasi.

Adadi 150. Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma №. 23

Hisob-nashriyot tabag‘i 25

Shartli bosma tabag‘i 23

UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani

haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi

Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986) asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.

Telefon/faks: (0362)-224-66-01;

e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz

ilmsarchashmalari@mail.ru

Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz

Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>